

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

<https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu>

O'QUV JARAYONIDA KREATIV FIKRLASHNI ANGLASH VA BAHOLASH

X.Ganiyeva JDPI oqituvchisi

O.Mahkamboyeva JDPI talabasi

Anatatsiya

PISA tadqiqotining o'quv jarayonida o'quvchi yoshlarning ichki va tashqi muhit ta'siriga kreativ yondashuv asosidagi ijodiy faoliyati, aqliy qobiliyatni rivojlantirib uni tajriba va intellektga aylantirish ,maqsad sari intilib o'zaro hamkorlik asosida uni muhitga chiqarish , har bir holatga, vaziyatga o'quvchilarning kreativ fikrlarini eshitish, uni shakllantirish, baholash tizimini tartibga solishdan iborat.

Kalit so'zlar: PISA,aqliy qobiliyatlar, tajriba va intellekt.

Abstract : PISA research is a creative activity of young people based on a creative approach to the internal and external environment in the learning process, developing mental abilities and turning it into experience and intellect, striving for the goal and putting it into the environment on a collaborative basis. 'listening to students' creative ideas, shaping it, regulating the evaluation system.

Keywords: PISA, mental abilities ,experience and intelect

Kreativ fikrlash- maktab bolalarida ular ham jamiyatning bir bo'lagi ekanligi va jamiyat taraqqiyotiga o'z ulushini qo'sha olishi mumkinligi borasidagi hissiyotni shakllantirishda katta rol o'ynaydi.PISA tadqiqotida kreativ fikrlash bilim sohasida orginal va samarali yechimlar ,yutuqlar va tasavvurni ta'sirchan ko'rinishlarga olib keladigan g'oyalarni ishlab chiqish ,baholash va takomillashtirishda samarali ishtirok etish qobiliyati deb ta'riflangan.

Kreativ baholashning asosi sifatida o'quvchilarning ichki resurslariga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan jihatlari :aqliy qobiliyatlari, soha bo'yicha tayyorgarligi, yangi g'oya va kechinmalarga ochiqlik , o'zgalar bilan hamkorlikda ishlashga hamda boshqalarning g'oyasini takomillashtirishga tayyor bo'lish, qiyichilikka uchraganda davom etishga tayyor bo'lish hamda kreativ yondoshuv borasida o'ziga ishonch,vazifa borasidagi ishtiyoq.O'quv jarayonida kreativ fikrlashning yordamchi omillari a)shaxsiy yordamchi omillar ; b)ijtimoiy yordamchi omillar

d) yutuq va rivojlanish; bular bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq, negaki ular yaxlit bir mazmun sifatida bir-birini to'ldirib taraqqiy etishga ta'sir qiladi.

Aqliy qobilyatlar- bir qator tadqiqotchilar ijodiy fikrlash uchun zaruriy aqliy qobilyatlarni aniqlashga harakat qilganlar. Jumladan, Guilfordning o'xshash va tafovutli fikrlash konsepsiyasini bu sohadagi tadqiqotlarga katta ta'sir o'tkazgan. Oxshash fikrlash deb aslida, javob topish maqsadida to'plangan ma'lumotga asosan izlanish, anglash va qaror qabul qilishning an'anaviy va mantiqiy strategiyasini qo'llash qobilyatidir. Tafovutli fikrlash- bu yangi yondoshuvlarni qo'llash va mavjud ma'lumotlardan kutilmagan kombinatsiyalarni aniqlash, shuningdek bog'lanishlar, fikrlash va o'zgarishning ravonroq bo'lish layoqatlarni qo'llash yo'li bilan kreativlik doirasida baholashni amalga oshirish. Tanggard "yangicha va qiymatli g'oyalarni berish qobilyati avval boshqa muammoni jo'yali ta'riflash kabi jarayonlarni amalga oshirishga bog'liq bo'lishi mumkin." darhaqiqat Getzels va Csikszentmihalyi aniqlashicha "rassomlik bo'yicha talabalarning muammoni ta'riflashdagi muvaffaqiyatlari ular chizgan rasmlarning estetik qiymati hamda o'ziga xosligining mezonlari bilan chambarchas bog'liq. "

O'quvchilar ijodiy fikrlashni ifoda qila olishi uchun ularning soha bo'yicha tayyorgarligini (bilim va tajribalari) takomillashtirishda maktablar muhim o'rin tutadi. Shaxsning qaysidir sohaga qiziqishi yoki malum bir sohani tanlash orqali o'zining ijodkorligi uchun o'sha sohada bilim va tajribaga ega bo'lish taqazo etilishi tushuniladi. Bu yerdagi faraz shuni ko'rsatadiki, shaxs sohaga oid qanchalik ko'proq ma'lumotga ega bo'lsa, ma'lumotlar orasidagi bog'liqlikni qanchalik yaxshi anglasa, uning ijodkorlik ehtimoli shunchalik ko'payadi. Lekin bu bog'liqlik to'g'ridan to'g'ri bo'lmasligi ham mumkin chunki shaxs odatiy tartibdan chetga chiqa oladigan fikrlashdan cho'chishi mumkin.

Tajribaga ochiqlik deganda shaxsning yangi g'oyalarni, xayolot va tasavvurlarni o'zlashtirishi tushuniladi. Ochiqlik tushunchasi ilmiy ijodkorlik tushunchasi bilan chambarchas bog'liq.

Tajriba va intellektga ochiqlik-kreativ shaxslarning fe'l-atvori ,yurish turishini o'rganadigan amaliy tadqiqotlar , odatda savolnoma instrumentlaridan foydalanadi va kreativlik nisbatan barqaror va muntazam fe'l-atvor ekanligidan kelib chiqadi.Kaufman va boshqalarning aniqlashicha tajribaga ochiqlik barcha sohalardagi ijodiy muvaffaqiyat bilan salmoqli va uzil-kesil tarzda bog'liq bo'lgan "katta beshlik"yagona xarakterdir.Xitoyliklar tafovutli fikrlash tarsi doimo tajribaga ochiqlik bilan bog'liq ekanligini kashf etgan.

Maqsad sari intilish va ijodkorlik borsida o'z o'ziga ishonch insonga maqsad sari itilish hissi va ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqara olishi borasidagi bardavomlik hissini berish orqali uning ijodkorligiga ta'sir qilishi isbotlangan.Bu yerdagi xususiy faraz shundan iboratki ,inson ijodiy faollikka kerak bo'ladigan barcha hislatlarga ega bo'lsa ham , lekin bunga yetarlicha ixlos qo'ya olmaganligi sababli ijobiy mahsul bermasligi mumkin.Tashqi ishtiyoq deb, aksincha insonni muayyan ish bilan shug'ullanishga majburlovchi tashqi rag'bat, maqsad va bosimlar tushuniladi.Umuman olganda , tadqiqotlar kreativ samara uchun ichki ishtiyoqning ijobiy ta'siri , tashqi ishtiyoqning salbiy ta'siri mavjudligini ko'rsatib keladi.Lekin hozirgi kunda bosim yoki rag'bat kabi tashqi motivatsiya omillari ham insonlarni ijodiy faollikda bardavom bo'lishlarini ta'minlashi e'tirof etilmoqda.

PISA loyihasi doirasida" O'zbekistonlik hamkasblarimizga birinchi tayyorgarlik uchun Maskvada ilk seminarlar tashkil etilgan edi. Ushbu seminar uchun barcha viloyatlardan mutaxassislar tanlab olingani ,ular bilan tayyorgarlik ishlari, suhbatlar olib borilgani va juda katta qiziqishga ega bo'lgan mutaxassislar tashrif buyurgani bizni qoyil qoldirgan va xursand qilgan.Oldiga aniq maqsad qo'yilgan mutaxassislar bilan ishlash biz uchun ham yaxshi maktab bo'lgan edi. Zero maktablar xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishni oldindan maqsad qilib qo'ygan.Prezident va hukumat tomonidan ta'lim tizimi oldida aniq vazifalar qo'yilgani, bu shunchaki ta'lim holatini nazorat qilish emas ,baliki ta'lim tizimining qanday ahvoldaligi haqida ma'lumot beradigan ,ta'lim sifatini yaxshilashga ko'maklashadigan va uni yanada raqobatbardosh qiladigan yo'nalish ekanligi hammaga tushuntirilganligiga amin bo'ldik.Yaxshi natijalar ko'rsatish

uchun hech bo'lmaganda ikki maqsadga ega bo'lish kerak:birinchisi;o'quvchilar va ularni ishlaydigan , foydalanadigan materiallarni tayyorlashdir.Zero xalqaro tadqiqotlarda bejizga maktablarda ta'lim sifati o'quvchilarning ta'lim darajasiga bog'liq deyilmaydi.Xalqaro tadqiqotlardagi natijalarni yaxshilash uchun o'quvchilarni maqsadli tayyorlash va ta'lim jarayonida o'qitish metodikasi va ustuvor tamoillarini o'zgartirish zarur.Buning uchun biz o'quvchilarga ta'limning yanada faol tizimini tadbiiq qilga holda ,o'quvchilarning ta'lim jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalana oladigan materiallar bilan ta'minlashimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda PISA tadqiqot loyihasi ko'rib chiqilgan ondan boshlab hayotga tadbiiq qilishni boshlamoqda.Negaki natija bo'lmasa uni ishlab chiqish va ommaga taqdim qilishga o'rin yo'q .Har bir narsa uchun o'z vakolati doirasida oldiga qo'yilgan reja va maqsadlar sari intilish va izlanishdan ,oldinga qadam bosishdan qo'rqmaslik kerak .Shu jumladan PISA tadqiqotidagi kreativlik ham shundan iboratki har bir vaziyat ,voqea hodisaga ,holatga o'quvchilarning sabr-toqat ,matonat,ularning ong bilan bog'liq bo'lgan aqliy qobilyati,qobilyatni shakllantirib ma'lum bir sohani tanlashi tajriba orqali malakali bo'lib maqsadga erishishni ta'minlashga yordam beradi.Inson o'zini anglash orqali kreativlikka ega bo'ladi hamma narsaga kreativ yondoshadi va kreativ baho beradi.

Adabiyotlar

- 1.Amabile, T. (2012), «Componential theory of creativity», No. 12-096, Harvard Business School, <http://www.hbs.edu/faculty/Publication%20Files/12-096.pdf> (accessed on 28 March 2018). [59]
- 2.Amabile, T. (1997), «Motivating creativity in organizations: on doing what you love and loving what you do», *California Management Review*, Vol. 40/1, pp. 39-58, <http://dx.doi.org/10.2307/41165921>. [85]
- 3.Amabile, T. (1996), *Creativity In Context: Update To The Social Psychology Of Creativity*, Westview Press, Boulder, CO. [35]
- 4.Amabile, T. (1985), «Motivation and creativity: effects of motivational orientation on creative writers», *Journal of Personality and Social Psychology*, Vol. 48/2, pp. 393-399, <https://pdfs.semanticscholar.org/>

a2f7/272fe76ce1adfc873382b398a514256f5324.pdf (accessed on
14 February 2018). [